TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жажонгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Дие́ра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Salardbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEKANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	



AGROSANOAT INNOVATSION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdievich	
TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUJUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	



IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Beginmova Dilshoda Komiljonovna

O'zbekiston milliy universiteti

"Davlat va korporativ strategiyalari" kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

ORCID: 0000-0001-9615-6832

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tahlil jarayonida tarmoq strategiyalarini shakllantirishda konsepsiyaning markaziy o'rni, missiya va uzoq muddatli rivojlanish ko'rinishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda strategik tamoyillar va ustuvor yo'nalishlarni belgilashning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada amalda qo'llanilayotgan strategik hujjatlarda qisqa muddatli taktik vazifalarning strategik maqsadlar bilan aralashib ketishi tanqidiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari iqtisodiyot tarmoqlarini strategiyalashda uzoq muddatli rivojlanish vektorini aniq belgilash, strategik ustuvor yo'nalishlarni ilmiy asosda tanlash va milliy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot tarmoqlari, tarmoq strategiyasi, strategiyalash, konsepsiya, missiya, rivojlanish ko'rinishi, strategik tamoyillar, strategik ustuvor yo'nalishlar, strategik diagnostika, OTSW-tahlil, uzoq muddatli rivojlanish.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for developing strategies for the development of economic sectors. The analysis reveals the central role of the concept in shaping sectoral strategies, the interconnection between the mission and the long-term development vision, as well as the importance of defining strategic principles and priority areas. The paper provides a critical assessment of the practice of mixing short-term tactical tasks with strategic objectives in existing strategic documents. The research findings make it possible to more clearly define the long-term development vector in the strategizing of economic sectors, to scientifically substantiate the selection of strategic priorities, and to enhance the effectiveness of national economic policy.

Key words: economic sectors, sectoral strategy, strategizing, concept, mission, development vision, strategic principles, strategic priorities, strategic diagnostics, OTSW analysis, long-term development.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические и методологические основы развития экономических секторов. В процессе анализа раскрывается центральная роль концепции в формировании отраслевых стратегий, неразрывная связь между миссией и долгосрочным видением развития, а также важность определения стратегических принципов и приоритетов. В статье критически анализируется смешение краткосрочных тактических задач со стратегическими целями в стратегических документах, используемых на практике. Результаты исследования позволяют четко определить вектор долгосрочного развития при стратегическом планировании экономических секторов, научно обоснованно выбрать стратегические приоритеты и повысить эффективность национальной экономической политики.

Ключевые слова: экономические секторы, отраслевая стратегия, стратегическое планирование, концепция, миссия, видение развития, стратегические принципы, стратегические приоритеты, стратегическая диагностика, OTSW-анализ, долгосрочное развитие.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqobat kurashi kuchayib borayotgan bir sharoitda iqtisodiyot tarmoqlarini maqsadli va samarali rivojlantirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, uning tashqi ta'sirlarga chidamliligi va resurslardan oqilona foydalanish darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan



strategiyalarning qay darajada puxta ishlab chiqilganiga bog'liqdir. Shu bois iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [1].

Iqtisodiyot tarmoqlari milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ularning rivojlanish darajasi ishlab chiqarish hajmi, bandlik, investision faollik, innovasion salohiyat va eksport imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu nuqtai nazardan, tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalari faqat qisqa muddatli iqtisodiy maqsadlarni emas, balki uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan kompleks va tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim. Bunda tarmoqlararo aloqalar, resurslar taqsimoti, texnologik o'zgarishlar va bozor kon'yunkturasi kabi omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Nazariy jihatdan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish masalasi klassik, neoklassik, institusional va innovasion iqtisodiy maktablar doirasida turlicha talqin qilinadi. Klassik yondashuvlarda ishlab chiqarish omillarining samaradorligiga e'tibor qaratilsa, neoklassik nazariyalarda bozor mexanizmlari va raqobat ustunliklari asosiy o'rin tutadi [3]. Institusional yondashuv tarmoqlar rivojlanishida davlat siyosati, qonunchilik muhiti va institutlar rolini ahamiyatli hisoblasa [4], innovasion iqtisodiy nazariyalar texnologik taraqqiyot, ilm-fan va innovatsiyalarni tarmoqlar rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida ko'radi [5].

Metodologik jihatdan tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda tizimli tahlil, ssenariyli modellash, indikativ rejalashtirish, qiyosiy tahlil, shuningdek, mikro va makro darajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks baholash usullaridan foydalanish talab etiladi [6]. Bu usullar orqali tarmoqlarning mavjud holati, rivojlanish salohiyati, muammolari va istiqbol yo'nalishlari aniqlanadi hamda strategik qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos yaratiladi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari va mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan tarmoq strategiyalari iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tarmoqlarni maqsadli rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, qo'shilgan qiymatni oshirish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish strategik vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq yillar davomida turli nazariy yondashuvlar va metodologik qarashlar doirasida o'rganib kelingan. Mazkur masalaga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarmoq strategiyalarini shakllantirishda konseptual yondashuv, institusional muhit, innovasion omillar va strategik boshqaruv usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

Klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalarda tarmoqlar rivojlanishi asosan ishlab chiqarish omillarining samaradorligi, kapital jamg'arilishi va bozor mexanizmlari orqali tushuntiriladi. Jumladan, P. Samuelson va V. Nordhaus iqtisodiy o'sish va tarmoqlar rivojlanishini bozor muvozanati, raqobat va resurslarning optimal taqsimoti bilan bog'laydi [3]. Bu yondashuv tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlikka e'tibor qaratish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy va tarmoq xususiyatlariga e'tibor qaratgan tadqiqotlarda esa tarmoqlar o'rtasidagi nomutanosibliklar, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va qo'shilgan qiymat zanjirini uzaytirish masalalariga alohida urg'u beriladi. M. Todaro va S. Smit iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda tarmoq siyosatining maqsadli va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar [2]. Ularning fikricha, tarmoq strategiyalari iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish vazifalarini ham hal etishi kerak.

Institusional iqtisodiy nazariya doirasida tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda davlat siyosati, qonunchilik muhiti va institusional tuzilmalarning roli ustuvor hisoblanadi. D. Nort institusional muhit iqtisodiy faoliyatning yo'nalishini belgilashini va strategik qarorlarning samaradorligi aynan institutlar sifatiga bog'liq ekanini asoslab beradi [4]. Bu yondashuv iqtisodiyot tarmoqlarini strategiyalashda faqat bozor omillarini emas, balki davlat boshqaruvi va tartibga solish mexanizmlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Innovasion iqtisodiy nazariyalar esa tarmoqlar rivojlanishida texnologik taraqqiyot, ilm-fan va innovatsiyalarni hal qiluvchi omil sifatida ko'radi. Shumpeter iqtisodiy rivojlanishni innovasion jarayonlar, yangi texnologiyalar va "ijodiy vayronkorlik" mexanizmi bilan bog'laydi [5]. Mazkur yondashuv tarmoq strategiyalarida innovatsiyalarga intilish va texnologik modernizatsiyani ustuvor yo'nalish sifatida belgilashning nazariy asosini tashkil etadi.

Tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish va strategik ustunliklarni shakllantirish masalalari M. Porter tadqiqotlarida keng yoritilgan. U tarmoq va milliy iqtisodiyot raqobat ustunliklari klasterlar, innovatsiya va samarali strategik pozitsiyalashuv orqali shakllanishini ta'kidlaydi [1]. Porterning konsepsiyasi tarmoq strategiyalarida ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va resurslarni maqsadli taqsimlashda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham iqtisodiyot tarmoqlarini strategiyalashning zamonaviy yondashuvlari keng yoritilgan. Xususan, UNIDO hisobotlarida tarmoqlarni rivojlantirishda raqamlashuv, sanoat 4.0, innovasion ekotizimlar va inson kapitali rivoji ustuvor ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.



[6]. Bu yondashuvlar tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda uzoq muddatli texnologik va institusional omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlarda strategiyalarni shakllantirishda metodologik muammolar, jumladan, qisqa muddatli taktik yondashuvlarni strategik rejalashtirish bilan adashtirish, SWOT-tahlilga ortiqcha tayanish va strategik vektorni aniq belgilamaslik holatlari uchraydi. Bu esa tarmoq strategiyalarining izchilligi va samaradorligini pasaytiradi. Ushbu holat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda konseptual va metodologik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo etadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va metodologik yondashuvlarni kompleks qo'llash, konsepsiyaga asoslangan strategik fikrlashni shakllantirish hamda uzoq muddatli rivojlanish vektorini aniq belgilash muhimligini ko'rsatadi [7,8]. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar chuqur tahlil qilinib, tarmoq strategiyalarini shakllantirishdagi ilmiy-metodologik asoslar takomillashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u strategik boshqaruv, institusional va innovasion iqtisodiy nazariyalarga tayanadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari o'zaro bog'liq va ko'p darajali tizim sifatida qaralib, ularning rivojlanishiga tashqi muhit omillari, institusional shart-sharoitlar va innovasion jarayonlarning ta'siri kompleks ravishda tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan tadqiqot tizimli va qiyosiy yondashuvlar asosida amalga oshirilib, xalqaro va milliy amaliyotda qo'llaniladigan tarmoq strategiyalari kontent-tahlil orqali o'rganildi. Shu bilan birga, strategik diagnostika, qadriyatlar va manfaatlarning strategik tahlili hamda trendlarning strategik tahlili iqtisodiyot tarmoqlarining mavjud holati va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini baholashga xizmat qildi.

Imkoniyatlarning strategik tahlili OTSW-tahlil asosida amalga oshirilib, u tashqi imkoniyatlar va tahdidlar hamda ichki kuchli va zaif tomonlarni aniqlash orqali strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkonini berdi. Olingan natijalar resurslar va vaqt cheklanganligini inobatga olgan holda iqtisodiy-matematik usullar yordamida dastlabki baholanib, iqtisodiyot tarmoqlarining uzoq muddatli rivojlanish vektorini shakllantirishga yo'naltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarmoq strategiyalarining asosiy va hal qiluvchi bloki konsepsiya hisoblanib, u strategiyaning mazmunan yaxlitligi, mantiqiy izchilligi hamda uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Konsepsiya strategiyalash jarayonida dastlabki metodologik poydevor vazifasini bajarib, missiya va uzoq muddatli rivojlanish ko'rinishi kabi muhim strategik hujjatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur hujjatlar strategiyalash ob'yektining tashqi va ichki muhitdagi pozitsiyasini aniqlab, qabul qilinadigan barcha strategik qarorlarning umumiy logikasini shakllantiradi.

Tarmoq strategiyasi missiyasi tashqi muhit uchun mo'ljallangan strategik hujjat bo'lib, u strategiyalash ob'yekti haqidagi fundamental ma'lumotlarni o'zida mujassam etishi lozim. Xususan, missiyada obyektning vujudga kelish shart-sharoitlari va faoliyat yuritish asoslari, strategiyalar tizimidagi o'rni (xalqaro, milliy yoki mintaqaviy darajada), ishlab chiqilayotgan strategiyaning o'ziga xos xususiyatlari va amaliy foydaliligi, shuningdek, strategiyaning umumiy ijtimoiy va iqtisodiy samarasi aniq ifodalanishi zarur. Missiya strategiyalash ob'yektining jamiyat, davlat va iqtisodiyot uchun ahamiyatini ochib berib, uning mavjudligini strategik jihatdan asoslab beradi [9].

Tarmoq strategiyasining uzoq muddatli rivojlanish ko'rinishi esa ichki strategik hujjat hisoblanib, u missiyaga erishishni ta'minlashga qaratilgan tamoyillar va strategik ustuvor yo'nalishlar tizimidan tashkil topadi. U strategiyalash ob'yektining kelajakda erishishi lozim bo'lgan maqsadli holatini, rivojlanish vektorini va shu vektor bo'yicha harakatlanish trayektoriyasini belgilaydi. Shu ma'noda, rivojlanish ko'rinishi strategiyaning natijaviy qismi bo'lib, u missiyada belgilangan maqsadlarni amaliy harakatlar tizimiga aylantirishga xizmat qiladi.

Strategiya tamoyillari tarmoq strategiyalarini metodologik jihatdan to'g'ri ishlab chiqish va samarali amalga oshirishni ta'minlovchi asosiy qoidalar majmuidir. Ular strategiyalash jarayonida qaror qabul qilishda mezon vazifasini bajaradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda ijtimoiy foydalilik, ko'pyoqlama manfaatlilik, strategiyalar tizimidagi iyerarxiya, strategiyalar tizimiga integratsiyalashganlik, innovatsiyalarga intilish, uzoq muddatli samaradorlik, multiplikativ ta'sir (ya'ni yangi natija va effektlar hosil bo'lishi), shuningdek, strategiyalash ob'yekti faoliyati xususiyatlaridan kelib chiquvchi tamoyillarga rioya etilishi zarur. Ushbu tamoyillar strategiyaning deklarativ emas, balki amaliy va natijaviy bo'lishini ta'minlaydi.

Strategik ustuvor yo'nalishlar har qanday strategiyaning, xususan tarmoq strategiyalarining markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular strategiyalash ob'yektining mavjud va potensial strategik imkoniyatlariga



tayanadi hamda missiyada oldindan belgilangan manfaatlar guruhi bilan uzviy bog'liq holda shakllantiriladi. Mazkur ustuvor yo'nalishlarni izchil va maqsadli amalga oshirish orqali strategiyaning bosh maqsadi — aholining turmush sifati va farovonligini oshirishga erishiladi. Shu sababli ishlab chiqilayotgan tarmoq strategiyasining muvaffaqiyati to'g'ridan-to'g'ri strategik ustuvor yo'nalishlarning to'g'ri tanlanganligiga bog'liq hisoblanadi.

Strategik ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishda ikki asosiy talabga qat'iy rioya qilish lozim. Birinchidan, har qanday ustuvor yo'nalish faqat asoslangan, real strategik imkoniyatlarga tayanish kerak. Ikkinchidan, har bir strategik ustuvor yo'nalish muayyan raqobat ustunligidan kelib chiqishi hamda uni amalga oshirish uchun to'liq va barqaror resurs bazasi bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Aks holda, strategiya amalga oshirilmaydigan yoki qisqa muddatli natijalar bilan cheklanib qoladigan hujjatga aylanib qoladi.

Strategik ustuvor yo'nalishlar uchun aniq va o'lchanadigan maqsadlar belgilanib, ular mazkur yo'nalishlarni amalga oshirish natijalari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Shu bilan birga, har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha umumiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari — byudjet (davlat) yoki xususiy (tijorat) samaradorlik aniqlanishi talab etiladi. Bu strategiyaning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini baholash imkonini beradi.

Rivojlanish ko'rinishining natijaviy qismida strategiyalash ob'yektining yagona va uzoq muddatli rivojlanish vektori hamda unga erishishga qaratilgan harakatlar trayektoriyasi belgilab beriladi. Rivojlanish trayektoriyasi strategiyaning umumiy liniyasini anglatib, unda strategik ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar vaqt bo'yicha davriy taqsimlangan bo'lishi lozim [10].

Tarmoq strategiyasini ishlab chiqishda konsepsiyaning yuqori va hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, uni shakllantirish jarayoni chuqur kompleks tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Ushbu jarayon strategiyalash ob'yektining strategik diagnostikasi, strategik tahlil hamda strategik ustuvor yo'nalishlar samaradorligini dastlabki baholash bosqichlarini qamrab oladi. Tahlil instrumentlari va usullari hamda ulardan foydalanish ketma-ketligi strategiyalashning umumiy nazariyasi asosiy g'oyalarga to'liq mos kelishi va strategik fikrlash tamoyillariga muvofiq bajarilishi lozim.

Strategik diagnostika strategiyalash ob'yektini tadqiq etishning dastlabki bosqichi hisoblanib, uning natijalari ob'yekt haqidagi birlamchi tizimli tasavvurlarni shakllantiradi. Xususan, ob'yektning global iqtisodiy tizimdagi o'ri, strategiyalash tizimida joylashuvi, joriy davrda amalga oshiriladigan manfaatlar guruhi va birlamchi salohiyati aniqlanadi. Diagnostika natijalari qadriyatlar va manfaatlar strategik tahlili yo'nalishini belgilab berishi lozim.

Qadriyatlar va manfaatlar strategik tahlili strategiyalash ob'yekti faoliyati va rivojlanishi atrofida jamlangan milliy, ijtimoiy, mintaqaviy, tarmoq, korporativ va xalqaro manfaatlarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Strategik diagnostika va mazkur tahlil natijasida olingan ma'lumotlar missiyani shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ana shu ma'lumotlar asosida tarmoq strategiyasining maqsadlili, o'ziga xosligi va foydaliligi aniqlanadi.

Trendlarning strategik tahlili strategiyalash ob'yektiga uzoq muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatuvchi yoki ta'sir qilish ehtimoliga ega bo'lgan strategik omillar, qonuniyatlar va tendensiyalarni aniqlashga yo'naltiriladi. Ushbu tahlil natijasida strategik imkoniyatlar va tahdidlar belgilanadi hamda rivojlanish ko'rinishining birinchi elementi — strategik tamoyillar tizimi shakllantiriladi. Keyingi bosqichda imkoniyatlarning strategik tahlili amalga oshirilib, u chuqur OTSW-tahlilga asoslanadi. Bu tahlil tashqi imkoniyat va tahdidlardan boshlab, ob'yektning kuchli va kuchsiz tomonlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Resurslar va vaqt cheklanganligi strategik ustuvor yo'nalishlarni dastlabki baholash zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu baholash ekonometrik instrumentlar va iqtisodiy-matematik modellash usullari yordamida amalga oshiriladi. Natijada strategik ustuvor yo'nalishlar "minimal xarajatlar asosida maksimal potensial samaradorlik" tamoyiliga ko'ra ranjirlanadi.

Strategik ustuvor yo'nalishlarni ranjirlash va saralash asosida strategiyalash ob'yektining yagona va uzoq muddatli rivojlanish vektori belgilanadi. Bunda ustuvor yo'nalishlar amalga oshirish davri va ketma-ketligiga muvofiq taqsimlanib, ob'yektning belgilangan vektor bo'yicha harakat trayektoriyasi ishlab chiqiladi.

Tarmoq strategiyalarini ishlab chiqish amaliyotida SWOT-tahlil usuli keng qo'llanilib, u ichki va tashqi muhit omillarini tizimlashtirishning eng sodda va universal instrumentlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur usul orqali strategiyalash ob'yektining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, rivojlanish imkoniyatlari va tahdidlari aniqlanib, qaror qabul qiluvchilar uchun muayyan dastlabki analitik baza yaratiladi. Ayniqsa, SWOT-tahlilning vizualligi va qo'llashda nisbatan osonligi uni davlat, tarmoq va korporativ darajadagi strategik hujjatlar tayyorlashda ommalashtirgan. Biroq uni strategiyalash jarayonining asosiy metodologik poydevori sifatida qo'llash uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash nuqtai nazaridan qator cheklovlarni yuzaga keltiradi.

SWOT-tahlil usulidan ortiqcha foydalanish tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik cheklov ekanini ko'rsatdi. Ushbu usul strategiyalash ob'yektining rivojlanish vektorini mavjud muammolar va ularni qisqa muddatda hal etish imkoniyatlari bilan bog'lab qo'yib, strategik fikrlashni tor doirada shakllantiradi. Bu esa strategiyaning uzoq muddatlilik tamoyiliga zid bo'lib, tashqi tahdid va xatarlar ta'sirida strategiya vektorining doimiy ravishda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada strategiya konseptual hujjat emas, balki joriy muammolarga reaktiv javob berish vositasiga aylanib qoladi, bu esa milliy va tarmoq miqyosida barqaror



rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda SWOT-tahlildan yordamchi instrument sifatida foydalanish, asosiy e'tiborni esa strategik diagnostika, qadriyatlar va manfaatlar tahlili, trendlar va imkoniyatlarning chuqur strategik tahliliga qaratish maqsadga muvofiqdir.

SWOT-tahlilga muqobil sifatida taklif etilayotgan OTSW-tahlil usuli strategiyalash jarayonida metodologik jihatdan yanada mukammal yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu usulda tahlil tashqi muhitdan boshlanib, avval strategik imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi, so'ngra ushbu omillar nuqtai nazaridan strategiyalash ob'yektining ichki salohiyati — kuchli va kuchsiz tomonlari baholanadi. Bunday ketma-ketlik strategik fikrlashni muammolarga emas, balki kelajakdagi imkoniyatlarga yo'naltiradi hamda rivojlanish vektorini tashqi muhitdagi uzoq muddatli tendensiyalar bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Natijada strategiya reaktiv emas, balki proaktiv xarakter kasb etadi.

OTSW-tahlil usuli strategik ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishda ham muhim afzalliklarga ega. Ushbu yondashuvda ustuvor yo'nalishlar ichki muammolardan kelib chiqib emas, balki strategik imkoniyatlar va raqobat ustunliklariga tayanadigan holda aniqlanadi. Bu esa strategik qarorlarni resurslar va vaqt cheklanganligi sharoitida "minimal harajatlar asosida maksimal uzoq muddatli samara" tamoyiliga muvofiq qabul qilishga xizmat qiladi [11]. Shu ma'noda, OTSW-tahlil tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlovchi, manfaatlar muvozanatiga asoslangan va strategik barqarorlikni kuchaytiruvchi samarali metodologik instrument sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va metodologik yondashuvlarni chuqurlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tarmoq strategiyalarining samaradorligi, eng avvalo, ularning konseptual jihatdan to'g'ri shakllantirilganligi, missiya va uzoq muddatli rivojlanish ko'rinishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, shuningdek, strategik tamoyillar va ustuvor yo'nalishlarning aniq belgilab olinganligiga bog'liq hisoblanadi. Konsepsiya strategiyalash jarayonida markaziy o'rin egallab, qabul qilinadigan barcha strategik qarorlarning umumiy mantig'ini va uzoq muddatli rivojlanish vektorini belgilaydi.

Tadqiqot natijasida aniqlandiki, amalda qabul qilinayotgan ko'plab tarmoq strategiyalarida strategik va taktik yondashuvlar o'rtasidagi chegara yetarli darajada aniq belgilanmagan. Natijada, qisqa muddatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar strategik maqsadlar sifatida talqin qilinib, uzoq muddatli rivojlanish vektorini ikkinchi darajaga surib qo'yilmoqda. Bu holat tarmoqlarning rivojlanish yo'nalishini tez-tez o'zgartirishga olib kelib, strategik hujjatlar o'rtasidagi izchillikni buzadi hamda milliy iqtisodiy siyosat samaradorligini pasaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilash jarayonida ularning real strategik imkoniyatlarga tayanishini va to'liq resurs bazasi bilan ta'minlanganligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Strategik ustuvor yo'nalishlar aniq raqobat ustunliklariga asoslanmagan holda belgilansa, strategiya deklarativ tus kasb etib, kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga olib kelmaydi. Shu sababli, har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, amalga oshirish muddatlari va iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari belgilab olinishi zarur.

Olingan ilmiy natijalar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, tarmoq strategiyalarini shakllantirishda konsepsiyaga asoslangan yondashuvni institusional jihatdan mustahkamlash, ya'ni missiya, uzoq muddatli rivojlanish ko'rinishi, strategik tamoyillar va ustuvor yo'nalishlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash zarur. Ikkinchidan, strategik hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida qisqa muddatli taktik vazifalarni alohida dastur va chora-tadbirlar doirasida hal etib, strategiyani uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga qat'iy yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tarmoq strategiyalarini ishlab chiqishda strategik diagnostika, trendlarning strategik tahlili va imkoniyatlarning OTSW-tahliliga asoslangan kompleks metodologik yondashuvni joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv strategiyalash ob'yektining rivojlanish vektorini muammolardan emas, balki strategik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda belgilash imkonini beradi. To'rtinchidan, strategik ustuvor yo'nalishlarni baholashda ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanish orqali resurslardan samarali foydalanish va maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, uning natijalari davlat boshqaruvi amaliyotida, tarmoq va mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqishda hamda keyingi ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishi mumkin. Konsepsiyaga asoslangan, uzoq muddatli rivojlanish vektoriga yo'naltirilgan strategik yondashuv milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.
2. Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development*. – 12th ed. – Pearson Education, 2015.
3. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. *Economics*. – 19th ed. – McGraw-Hill, 2010.
4. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge University Press, 1990.
5. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. – Harvard University Press, 1934.
6. UNIDO. *Industrial Development Report: Industrializing in the Digital Age*. – Vienna, 2020.
7. Сасаев Н.И. Стратегирование отраслевого развития: теория, методология, практика. – М.: Экономический факультет МГУ, 2018. – 312 с.
8. Сасаев Н.И. Методология стратегирования социально-экономического развития отраслей экономики // Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика. – 2019. – № 4. – С. 25–41.
9. Сасаев Н.И. Роль миссии и видения в системе стратегирования отраслей экономики // Экономическая стратегия. – 2021. – № 3. – С. 58–69.
10. Сасаев Н.И. Стратегические приоритеты и вектор долгосрочного развития отраслей // Проблемы прогнозирования. – 2022. – № 5. – С. 33–47.
11. Сасаев Н.И. OTSW-анализ как инструмент стратегирования долгосрочного развития // Стратегические решения и риск-менеджмент. – 2020. – № 2. – С. 14–27.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
